

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING PAYDO BO'LISHIDA METAFORANING O'RNI

Alibekov Doniyor Nurmatovich

*Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti
(mobile (+99899) 878-80-37; e-mail- a_doniyor@mail.ru)*

Annotatsiya

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda tilning ekspressiv vositalari, tilning ifoda vositalari, stilistik vositalar, lisoniy figuralar, nutqiy ifoda vositalari, troplar singari ko'plab terminlar tez-tez uchraydi. Mazkur tushuncha va vositalar asosan tilning semantik, strukturaviy hamda funktsional jihatlarini o'rganishni o'z oldiga asosiy vazifa sifatida qo'yadi. Shunday til vositalaridan bo'lgan metafora til birliklari, jumaldan frazeologik birliklarni paydo bo'lishida alohida o'ringa ega. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning paydo bo'lishida metaforik ko'chishning o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: til vositasi, frazeologik birlik, til birligi, idioma, ma'no ko'chishi, metafora, uslubiy vosita, trop, turg'un birikma

Tilning leksik ifodaviy vositalarini o'rganishga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar orasida rus tilshunosi I.V. Galperin tomonidan taklif etilgan tilning fonetik, leksik va sintaktik singari asosiy qatlamlariga ko'ra yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.ⁱ Tilning leksik ifodaviy vositalari tadqiqi, xususan tasnifi yuzasidan taklif etilgan mukamal tasniflardan biri V.A. Kuxarenko tomonidan olg'a surilgan bo'lib, muallif stilistik vositalarning to'rtta asosiy guruhini farqlaydi: 1) leksik stilistik vositalar: metafora, metonimiya, personifikatsiya (jonlantirish), epitet, giperbola (mubolag'a), kinoya, so'z o'yini, zeugma; 2) sintaktik stilistik vositalar: inversiya, ellips, ritorik savol, xiazm, takrorlar, parallel konstruksiyalar, apoziopez, birlashmaslik, ko'plik; 3) leksik-sintaktik stilistik vositalar: antiteza, litota, qiyoslash (o'xshatish) perifraza, gradatsiya; 4) grafik va fonetik stilistik vositalar: kursiv, tagiga chizish, imlo xatolari, bo'g'inga ajratish, bosh harflar, qo'shtirnoq, alliteratsiya, assonans, onomatopeya, qofiya, ritm.ⁱⁱ

Ma'lumki, frazeologizm va metafora teminlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq hodisalar bo'lib, frazeologik birlikning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi eng keng tarqalgan omil metaforadir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, metafora antik davr filologlaridayoq qiziqish uyg'otgan lingvistik hodisalarga biri bo'lib, u ko'chma ma'noga ega bo'lgan trop sifatida uzoq o'rganish tarixiga ega. Antik davr olimlari (Aristotel, Kvintilian va boshqalar) metaforani mantiqiy aniqlangan umumiy

xususiyatga asoslanib, bir so'zni mustaqil ravishda boshqa so'z bilan almashtirilishi deb izohlaydilar. Aristotel o'zining "Poetika" asarida metafora mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Metafora ma'nosi o'zgargan so'zning bir turdan boshqa ko'rinishga, yoki bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga, yoki proportsiya shaklga ko'chirilishidir"ⁱⁱⁱ Til hodisalarini o'rganishga yondashuvning sinxron tamoyillariga asoslanib, asosiy e'tibor lisoniy jarayonlarga emas, balki tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarga qaratilganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Ma'lumki, metafora nafaqat til vositasi, yoki hozirgi kunda til birliklari tahlil qilish imkonini beruvchi tadqiqot metodi, balki falsafa, mantiq, psixologiya singari boshqa ko'plab fanlarning o'rganish ob'ekti bo'lib ham xizmat qilishiga ham guvoh bo'lish mumkin. Metaforaning turli xususiyatlari haqida to'xtalar ekan, G.N. Sklyarevskaya o'z monografiyasida lingvistik metaforaga doir semasiologik, onomasiologik, gnoseologik, mantiqiy, lingvistik, lingvostilik, psixololingvistik, ekspressiologik, lingvistik-adabiy, leksikologik va leksikografik singari 11 ta tadqiqot yo'nalishini ajratib ko'rsatadi.^{iv} Hozirgi kun tilshunosligida metaforani boshqa bir kognitiv jihatini eslab o'tish o'rinli. Xususan, mashhur tilshunoslar J. Lakof hamda M. Jonson metaforaning mazkur jihatiga alohida e'tibor qaratadilar. Mualliflar metaforaning lisoniy jihatlarini ham alohida inobatga oladilar, jumladan *Metaphors We Live by* asarida quyidagi jummalarni uchratish mumkin: "Ko'pchilik uchun metafora bu oddiy tildan ko'ra g'ayrioddiy masala bo'lgan she'riy tasavvur va ritorik gullab-yashnash vositasidir. Bundan tashqari, metafora odatda fikr yoki harakat emas, balki so'z masalasi bo'lgan yolg'iz tilninggina o'ziga xos xususiyati sifatida qaraladi. Shu sababli, ko'pchilik metaforasiz yaxshi til topisha olish mumkin deb o'ylashadi. Biz, aksincha, metafora nafaqat tilda, balki fikr va harakatda ham kundalik hayotda keng tarqalganligini aniqladik. Bizning o'ylaydigan va harakat qiladigan odatiy kontseptual tizimimiz tabiatan metaforik xususiyatga egadir"^v.

An'anaviy tilshunoslikda metafora ("ko'chish", "ko'chma ma'no", "ko'chim") umumiy xususiyatiga ko'ra biror predmetni boshqasi bilan qiyoslashga asoslangan ko'chma ma'noda ishlatiladigan trop, so'z yoki iboradir. Metafora so'z va iboralarning qandaydir o'xshashlik (analogiya) yoki qiyoslash asosida ko'chma ma'noda qo'llanilishidan iborat nutq shaklidir. Mazkur fikrni davom ettirar ekan, N.D. Arutyunova metaforani quyidagicha ta'riflaydi: "boshqa sinfga tegishli ob'ekt yoki boshqa sinf nomlanishini tavsiflash yoki nomlash uchun predmetlar, hodisalar va hokazolarning ma'lum bir sinfini bildiruvchi so'zdan foydalanishdan iborat bo'lgan trop yoki nutq mexanizmidir. Keng ma'noda "metafora" termini ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlardan foydalanishning har qanday turiga qo'llanilishi mumkin"^{vi}.

Metaforaning asosiy xususiyatlaridan biri, so'zsiz uning semantik jihatdan ikki sathliliigi bo'lib, unda asosiy va ko'chma ma'nolarning birgalikda mavjudligi, parallelligi, ko'chma ma'noning bevosita asl ma'noda o'ziga xos tarzda

ifodalanganligi, hamda ko'chma ma'no asl ma'no fonida anglashilishi mumkin.^{vii} Shu tariqa, so'zning asl ma'nosi parallel ravishda hosil bo'ladigan yangi ko'chma ma'noni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, metafora bu inson tafakkurida o'z aksini topgan lingvistik tuzilma bo'lib, ma'lum bir ob'ekt yoki hodisaning xarakterli belgilarining boshqa bir ob'ekt yoki hodisaga o'xshashlik asosida o'tishidir.

Ikkilamchi nominatsiyaning namoyon bo'lish shakli bo'lgan metafora umumiy frazeologik ma'no yaratishda alohida o'rin tutadi. Metaforaning asosi o'xshatish yoki taqqoslashdir. Inson noma'lumni ma'lum bilan solishtirishi mumkin va bu uning ob'ektiv voqelikka munosabatini ko'rsatadi. Qadim zamonlardan beri insonning yaqin atrofdagi eng mashhur tushunchalari va ob'ektlarini bildiruvchi til birliklari metaforizatsiyaga uchraydi. Frazeologik birliklarning paydo bo'lishida inson tanasining qismlari, oila rishtalari, hayvonlar, o'simliklar, materiallar, kiyim-kechak buyumlari, uy-ro'zg'or buyumlari, tabiat hodisalari muhim o'rin tutadi.^{viii}

Inson tanasi a'zolari asosida yasalgan frazeologizmlar inson tanasining ahamiyatiga o'xshatish asosida paydo bo'ladi, xususan, ingliz tilidagi *armed to the teeth* va uning o'zbek tilidagi ekvivalenti bo'lgan *tish-tirnog'igacha qurollangan* yoki *tish-tirnog'i bilan* frazeologizmlarini misol sifatida keltirish mumkin. The invading soldiers were armed to the teeth. There was no way the defenders could hope to win^{ix}. O'zbek tilidagi tish-tirnog'i bilan iborasi esa asli harbiy sohadan kelib chiqqan bo'lsa-da, asosan umumiy kundalik hayotda *'qat'iyat bilan, butun imkon bilan'* ma'nosida keng qo'llanilishini ta'kidlash o'rinli, masalan: Tish-tirnog'i bilan shu yerda, shu bolalarning sevgan o'qituvchisi bo'lib qolishga tirishaman. (P. Tursun).^x Inson tananing boshqa bir muhim a'zosi sanalgan ko'rish organi bo'lgan ko'z ko'plab frazeologizmlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi, masalan, an apple of one's eye, ko'zning oq-qorasi kabi.

Xulosa o'rnida alohida ta'kidlash lozimki, til lug'at tarkibining ajralmas qismi sanalgan frazeologik birliklarning hosil bo'lishida ma'no ko'chishining usullaridan biri bo'lgan metafora alohida o'ringa egadir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. — М.: Высшая школа, 1981. с. 47-127
2. Кухаренко В.А. Практикум по стилистике английского языка: учебное пособие. — М.: Флинта, 2020. с.102
3. Античные теории языка и стиля. -М-Л, 1936, с. 174
4. Складская Г. Н. Метафора в системе языка / Отв. ред. Д. Н. Шмелев; Российская академия наук, Институт лингвистических исследований. — Санкт-Петербург: Наука, 1993, с.6-11

5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. London: The university of Chicago press. – 2003, p. 4.
 6. Арутюнова Н.Д. Метафора / Языкознание. Большой энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. — М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. — с. 296.
 7. Ефимов А.И. Стилистика русского языка. - Москва: Просвещение, 1969. - с. 110-111.
 8. Гак В.Г. Метафора: универсальное и специфическое // Метафора в языке и тексте. – М.: Наука, 1988 – с. 11-26.
 9. Shelley, V.L. Something to Crow about. - Washington, 1996, p. 2.
 10. Sh. Rahmatullayev, va b.lar. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022 -500 - s
-